



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№8(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 236 sahifa,
3-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi	10
<i>Jo'rayeva Dilfuza Abdug'aniyevna</i>	
Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalardan foydalangan holda masalalar yechish	13
<i>Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili.....	17
<i>Mutallibjonov Boburmirzo</i>	
Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi	26
<i>Nosirova Feruza Baxadir qizi</i>	
Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli.....	30
<i>Gafurova Mahfuza Abbosovna</i>	
Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi	35
<i>Ravshanova Uldona Narziboyevna</i>	
Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni	39
<i>Vorisova Barnoxon Olimjon qizi</i>	
Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish	43
<i>Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antfragil yondashuvning o'rni.....	51
<i>G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi</i>	
Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari	57
<i>Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna</i>	
Talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish	61
<i>G'ofurov To'liqinjon</i>	
Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching	67
<i>Ismailova Aziza Dilshodovna</i>	
Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.....	72
<i>Канаатов Есимкан</i>	
Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti.....	76
<i>Abdullayev Amirulla Xazratovich</i>	
Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi	81
<i>Pardayeva Kamola Sultonovna</i>	
Sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	86
<i>Imomaliyev Quvvat Choriyevich</i>	
Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diaagnostik tizimini joriy etish va boshqarish	91
<i>Nurmetov Tursunbek Kenjayevich</i>	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	96
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi</i>	
Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli	99
<i>Mardonov Maqsudbek Maxmudovich</i>	
Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari	103
<i>Umarova Umidaxon Ibaydullayevna</i>	



Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari	108
<i>Xo'janiyozov Shokir Rustamovich</i>	
Fanlararo aloqadorlik asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi va uning eksperimental samaradorligi	114
<i>Isroilova E'zoza Akmal qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'qitishda veb-kvestlar va raqamli keyslarni samarali qo'llash usullari	119
<i>Shermatova Ra'no O'ktam qizi, Baxodirova Gulnoz Kamalovna</i>	
Xalq og'zaki ijodi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish texnologiyalari	124
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Bo'lajak fizika o'qituvchilarini nanotexnologiya sohasidagi bilimlarni taqdim etishga va o'qitishga tayyorlash metodikasi	129
<i>Sottarov Abduvali Umirqulovich</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	133
<i>Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi</i>	
Emotsional intellekt va raqamli kommunikatsiya: yoshlar psixologiyasida zamonaviy tendensiyalar	137
<i>Qahharov Nuriddin Sherbek o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda "o'quv burnout" (o'qishga nisbatan charchash va sovish) holatining oldini olishda motivatsion pedagogik texnologiyalar	142
<i>Babajanova Gulmira Muratbayevna</i>	
Linguopragmatic Errors in Artificial Intelligence-Generated Translations	147
<i>Aytmuxamedova Durdona Jasur qizi</i>	
Клинические особенности аллергодерматозов у лиц, проживающих в Ташкентской области	153
<i>Абдуллаева Ф. Б., Саипова Н. С.</i>	
Tyutorlik faoliyatining pedagogik ahamiyati	160
<i>Ashirova Gulnora Xayrullayevna</i>	
Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish	164
<i>Nurmuratova Iroda Nuriddinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda diqqat yetishmasligi va giperfaollik: mnemotexnik korreksiya	169
<i>Egamberdiyeva Xuriyat Egamberdiyevna, Kaxxarova Ozoda Abdimo'minovna</i>	
The Historical Development of Translation	173
<i>Sharopova Gulnoza Odil qizi</i>	
Integratsiya jarayonlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan metodik tizim	176
<i>L. T. Xudaybergenova</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlari metodikasini ishlab chiqish	180
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining diagnostik kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni: ilmiy adabiyotlar sharhi	186
<i>Xalimova S. A.</i>	
The Role and Opportunities of Artificial Intelligence (AI) in the Management of Educational Institutions	191
<i>Abduqahorova Lobar Oybekovna</i>	
Malaka oshirish jarayonida maktab direktorlarining mediakompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmi	197
<i>Xidirova Maftuna Ilhom qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda STEAM va an'anaviy usullarning qiyosiy tahlili	205
<i>Boltayeva Nasiba Ilhom qizi</i>	

Kasb-hunar ta'limida elektromobillar va robototexnika yo'nalishlarini rivojlantirish: xalqaro hamkorlik tajribasi va "2+1" dual ta'lim modeli.....	209
<i>Dushanov Nuriddin Qo'ldoshovich, Suvonov Murodjon Abdurahmon o'g'li, Ibragimova Dinara Rustam qizi, Karimova Oygul Ro'ziyevna, Avliyoqulov Muxammad Mustafoyevich</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlarining metodikasini ishlab chiqish ...	212
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda "ijodiy faoliyat" va "kreativlik" konseptlarining nazariy-metodologik interpretatsiyasi...	218
<i>Komila Aytmuratova</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida rivojlantirishga doir mashqlar tipologiyasining samaradorligi.....	222
<i>Maxmudova Feruza Salimjonovna</i>	
O'zbek va rus nasrida oilaviy munosabatlarning badiiy-psixologik talqini	227
<i>Qurbonova Malika Toxir qizi</i>	
O'quv-biluv kompetensiyasining nazariy asoslari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar	230
<i>Saydaxmedova Barno Batirovna</i>	

BO'LAJAK CHET TILI O'QITUVCHILARINING LEKSIK KOMPETENSIYASINI SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHGA DOIR MASHQLAR TIPOLOGIYASINING SAMARADORLIGI

Maxmudova Feruza Salimjonovna

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti
2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan mashqlar tipologiyasi yoritilgan. Mashqlar to'rtta mezon – tashkiliy shakl, leksik kompetensiya komponenti, kognitiv faoliyat darajasi hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasining komponentlari (differensial, reflektiv, tanlov asosidagi va muammoli vaziyatga yo'naltirilgan) bo'yicha tasniflangan. Taklif etilgan metodikaning amaliy samaradorligini aniqlash maqsadida Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institutida pedagogik tajriba-sinov ishi tashkil etildi. Unda nazorat guruhi (XTA-25, 15 nafar talaba) an'anaviy metodika asosida, tajriba guruhi (DU-25, 15 nafar talaba) esa ishlab chiqilgan mashqlar tizimi asosida o'qitildi. Tajriba-sinov natijalariga ko'ra, boshlang'ich bosqichda nazorat va tajriba guruhlar ko'rsatkichlari deyarli bir xil bo'lgan (mos ravishda 64 % va 65 %). Yakuniy bosqichda esa nazorat guruhi 68 %ga, tajriba guruhi esa 83 %ga erishdi. Natijada tajriba guruhidagi o'sish (+18 foiz punkti) nazorat guruhidagi o'sishga (+4 foiz punkti) nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ldi. Olingan natijalar taklif etilgan mashqlar tipologiyasining bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini rivojlantirishdagi amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: leksik kompetensiya, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi, mashqlar tipologiyasi, differensial mashqlar, reflektiv mashqlar, tanlov asosidagi mashqlar, muammoli vaziyatga yo'naltirilgan mashqlar, pedagogik tajriba-sinov ishi, bo'lajak chet tili o'qituvchisi.

Abstract: This article presents a typology of exercises developed on the basis of learner-centered educational technology to foster the lexical competence of future foreign language teachers. The exercises are classified according to four criteria: organizational form, component of lexical competence, level of cognitive activity, and component of learner-centered educational technology (differentiated, reflective, choice-based, and problem-situation-oriented exercises). To determine the practical effectiveness of the proposed methodology, a pedagogical experiment was conducted at the Namangan State Institute of Foreign Languages named after Ishakhan Ibrat. The control group (XTA-25, 15 students) was taught using the traditional methodology, whereas the experimental group (DU-25, 15 students) was taught using the developed system of exercises. The results showed that, at the initial stage, the performance of the control and experimental groups was almost identical (64% and 65%, respectively). At the final stage, the control group achieved 68%, while the experimental group reached 83%. Consequently, the improvement in the experimental group (+18 percentage points) was considerably greater than that of the control group (+4 percentage points). These findings confirm the practical effectiveness of the proposed typology of exercises in developing the lexical competence of future foreign language teachers.

Key words: lexical competence, learner-centered educational technology, typology of exercises, differentiated exercises, reflective exercises, choice-based exercises, problem-situation-oriented exercises, pedagogical experiment, future foreign language teacher.



Аннотация: В данной статье представлена типология упражнений, разработанная на основе личностно-ориентированной образовательной технологии и направленная на развитие лексической компетенции будущих учителей иностранного языка. Упражнения классифицированы по четырём критериям: организационной форме, компоненту лексической компетенции, уровню когнитивной деятельности и компоненту личностно-ориентированной образовательной технологии (дифференцированные, рефлексивные, основанные на выборе и ориентированные на проблемную ситуацию упражнения). С целью определения практической эффективности предложенной методики в Наманганском государственном институте иностранных языков имени Исхакхана Ибрата был проведён педагогический эксперимент. Контрольная группа (ХТА-25, 15 студентов) обучалась по традиционной методике, тогда как экспериментальная группа (ДУ-25, 15 студентов) – по разработанной системе упражнений. Результаты эксперимента показали, что на начальном этапе показатели контрольной и экспериментальной групп были практически одинаковыми (64 % и 65 % соответственно). На заключительном этапе показатель контрольной группы достиг 68 %, а экспериментальной – 83 %. Таким образом, прирост в экспериментальной группе (+18 процентных пунктов) оказался значительно выше, чем в контрольной группе (+4 процентных пункта). Полученные результаты подтверждают практическую эффективность предложенной типологии упражнений в развитии лексической компетенции будущих учителей иностранного языка.

Ключевые слова: лексическая компетенция, личностно-ориентированная образовательная технология, типология упражнений, дифференцированные упражнения, рефлексивные упражнения, упражнения, основанные на выборе, упражнения, ориентированные на проблемную ситуацию, педагогический эксперимент, будущий учитель иностранного языка.

KIRISH

Chet tili ta'limi jarayonida leksik kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish masalasi bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida muhim o'rin tutadi. Leksik kompetensiya o'rganuvchining til birliklarini anglash, ularni nutqiy faoliyatda to'g'ri va samarali qo'llashga oid bilim, ko'nikma hamda malakalarni qamrab oluvchi murakkab kompetensiya sifatida talqin etiladi. Mazkur kompetensiyaning samarali shakllanishi, avvalo, o'quv jarayonida qo'llaniladigan mashqlar tizimining ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligiga bevosita bog'liq. Shu bois bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlarni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida tizimlashtirish hamda ularni ilmiy asoslangan mezonlar bo'yicha tasniflash zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi ishlab chiqilgan mashqlar tipologiyasini pedagogik tajriba-sinov ishlari orqali sinovdan o'tkazish hamda uning bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini rivojlantirishdagi amaliy samaradorligini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- mashqlarni ko'p mezonli tipologiya asosida tasniflash;
- ishlab chiqilgan mashqlar tizimini pedagogik tajriba-sinov ishlari orqali sinovdan o'tkazish;
- nazorat va tajriba guruhlarini natijalarini qiyosiy tahlil qilish;
- olingan natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavzuning nazariy asoslari va mavjud ilmiy manbalar tahlili keyingi bo'limda yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Leksik kompetensiyani rivojlantirish muammosi xorijiy va mahalliy tilshunoslik hamda pedagogika fanida keng o'rganilgan. I.S.P. Nation "Learning Vocabulary in Another Language" asarida leksik kompetensiyani so'z birliklarini bilish, ularni nutqda ongli ravishda qo'llash hamda avtomatlashtirilgan darajada erkin ishlata olish qobiliyatlarining uyg'unligi sifatida talqin qiladi. Muallif leksik kompetensiyani retseptiv va produktiv ko'nikmalarining o'zaro integratsiyasi asosida bosqichma-bosqich shakllantirish zarurligini asoslaydi ^[1].

J.C. Richards "The Role of Vocabulary Teaching" maqolasida kommunikativ yondashuv doirasida lug'at boyligini o'qitishning ahamiyatini ochib berib, mexanik yodlashdan ko'ra kontekstga asoslangan mashqlar tizimining samaradorligini ta'kidlaydi ^[6].

Shuningdek, J.C. Richards va T.S. Rodgers hammuallifligidagi "Approaches and Methods in Language Teaching" asarida til o'qitish metodlarining nazariy asoslari tizimli ravishda bayon etilgan ^[7]. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nazariyasining asoschilaridan biri C. Rogers "Freedom to Learn" asarida ta'lim oluvchini o'quv jarayonining markaziy subyekti sifatida e'tirof etib, pedagogik faoliyat uning individual ehtiyojlari va shaxsiy rivojlanishiga xizmat qilishi zarurligini asoslaydi ^[2].

I.S. Yakimanskaya esa "Lichnostno-orientirovannoye obucheniye v sovremennoy shcole" hamda "Lichnostno-orientirovannoye obucheniye" asarlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'limning didaktik mexanizmlarini, xususan differensiallash va individuallashtirish tamoyillarini batafsil yoritadi ^[3; 4].



Kognitiv faoliyat darajalarini tasniflashda B.S. Bloom hamda L.W. Anderson va D.R. Krathwohl tomonidan ishlab chiqilgan taksonomiyalar muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Bloom taksonomiyasida bilim, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez va baholash bosqichlari ajratilgan bo'lsa ^[8], Anderson va Krathwohl ushbu modelni takomillashtirib, kognitiv jarayonlarni "eslab qolish"dan "yaratish" gacha bo'lgan ierarxik tizim sifatida talqin qiladilar ^[9]. Mazkur tadqiqotda qo'llanilgan "reproduktiv – qisman izlanishga yo'naltirilgan – ijodiy" darajalanishi ushbu taksonomik yondashuvlar bilan metodologik jihatdan uyg'unlashadi.

Hamkorlikda o'qitish nazariyasi doirasida D. Johnson va R. Johnson "Learning Together and Alone" asarida individual, juftlik va kichik guruhlarida tashkil etilgan o'quv faoliyatining samaradorligini ilmiy asoslaydi ^[5]. Mazkur qarash tadqiqotda mashqlarni tashkiliy shakliga ko'ra (individual, juftlik va kichik guruh) tasniflash uchun nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

I.A. Zimnyaya "Kompetentnostnyy podxod v obrazovanii" hamda "Pedagogicheskaya psikhologiya" asarlarida kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik va psixologik asoslarini yoritib, kompetensiyaning bilim, ko'nikma va malaka komponentlari orqali namoyon bo'lishini tahlil qiladi ^[10; 11].

Ushbu yondashuv tadqiqotda leksik kompetensiyaning bilim, ko'nikma va malakadan iborat uch komponentli tuzilmasini asoslashda metodologik tayanch vazifasini bajardi. Nihoyat, J.C. Richards va T.S.C. Farrell "Professional Development for Language Teachers" asarida bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishida reflektiv faoliyat hamda amaliyotga yo'naltirilgan mashqlarning ahamiyatini asoslaydi ^[12].

Mazkur ilmiy qarashlar tadqiqotda reflektiv mashqlar komponentini ishlab chiqish va asoslashda muhim metodologik manba bo'lib xizmat qildi. Umuman olganda, mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, leksik kompetensiyani rivojlantirish, kognitiv faoliyat darajalarini hisobga olish hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari alohida ilmiy yo'nalishlar sifatida yetarlicha tadqiq etilgan. Biroq ushbu yondashuvlarning bo'lajak chet tili o'qituvchilarini tayyorlash kontekstida yagona, ko'p mezonli mashqlar tipologiyasi doirasida integratsiyalashgan holda ishlab chiqilishi ilmiy adabiyotlarda yetarli darajada yoritilmagan. Aynan mazkur ilmiy bo'shliq ushbu tadqiqotning dolzarbligi va ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mashqlar tipologiyasining nazariy asoslari

Mazkur tadqiqot doirasida mashqlar tipologiyasi to'rtta asosiy mezon asosida ishlab chiqildi va tasniflandi:

- tashkiliy shakliga ko'ra (individual, juftlik va kichik guruh);
- leksik kompetensiya komponentiga ko'ra (bilim, ko'nikma va malaka);
- kognitiv faoliyat darajasiga ko'ra (reproduktiv, qisman izlanishga yo'naltirilgan va ijodiy);
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi komponentiga ko'ra (differensial, reflektiv, tanlov asosidagi hamda muammoli vaziyatga yo'naltirilgan mashqlar).

Ta'kidlash joizki, mazkur to'rt mezon o'zaro mustaqil mashqlar tizimlarini emas, balki yagona mashqlar majmuasini turli metodik nuqtayi nazardan tavsiflovchi va bir-birini to'ldiruvchi tahlil mezonlarini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, bitta mashq bir vaqtning o'zida bir nechta mezon bo'yicha tavsiflanishi mumkin. Masalan, u juftlikda bajariladigan, leksik ko'nikmani rivojlantiruvchi, qisman izlanishga yo'naltirilgan hamda reflektiv xarakterdagi mashq bo'lishi mumkin. Shu sababli taklif etilgan tipologiya mashqlarni alohida guruhlariga qat'iy ajratishni emas, balki ularni kompleks metodik tizim sifatida tavsiflashni nazarda tutadi (1-jadval).

1-jadval: **Mashqlar tasnifi mezonlarining o'zaro nisbati (namunalar asosida)**

Mashq nomi	Tashkiliy shakl	Leksik komponent	Kognitiv daraja	Shaxsga yo'naltirilgan komponent
Moslashtirish mashqi	Individual	Bilim	Reproduktiv	–
"Before–After" reflektiv mashq	Individual	Malaka	Qisman izlanish	Reflektiv
Tanlov asosidagi matn yozish	Individual	Ko'nikma	Ijodiy	Tanlov asosidagi
Pedagogik muammoga yechim taklif qilish	Individual/juftlik	Ko'nikma+malaka	Ijodiy	Muammoli vaziyatga asoslangan

Tashkiliy shakl, leksik kompetensiya komponenti va kognitiv faoliyat darajasi mashqlar tizimining barcha elementlarini qamrab oluvchi universal tahlil mezonlari hisoblanadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi komponenti esa tadqiqotning markaziy nazariy konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etuvchi asosiy metodik mezon sifatida xizmat qiladi. Shu sababli pedagogik tajriba-sinov ishida asosiy e'tibor differensial, reflektiv, tanlov



asosidagi hamda muammoli vaziyatga yo'naltirilgan mashqlardan foydalanishga qaratildi. Mazkur mashqlar o'rganuvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish, reflektiv faoliyatini faollashtirish va kasbiy yo'naltirilgan leksik kompetensiyasini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega.

Differensial mashqlarda bir xil leksik mavzu doirasida turli murakkablik darajasidagi (A, B va C) topshiriqlar taklif etilib, o'rganuvchiga o'zining leksik tayyorgarlik darajasiga mos variantni tanlash imkoniyati yaratiladi (masalan, Differentiated Vocabulary Task for Future EFL Teachers mashqi). Reflektiv mashqlar esa o'rganuvchilarda o'z o'quv faoliyatini tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday mashqlarga leksik kundalik yuritish hamda Before–After mashqi misol bo'la oladi.

Tanlov asosidagi mashqlarda o'rganuvchi bir nechta topshiriq variantlaridan o'ziga eng mosini tanlaydi (masalan, My Professional Toolbox mashqi), bu esa ichki motivatsiyani kuchaytiradi va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantiradi. Muammoli vaziyatga yo'naltirilgan mashqlar esa real yoki modellashirilgan kasbiy-pedagogik vaziyatlarda (case study, role play) leksik birliklarni amaliy qo'llashga yo'naltirilgan bo'lib, kommunikativ va kasbiy kompetensiyalarning integratsiyalashgan rivojlanishini ta'minlaydi.

Ishlab chiqilgan mashqlar tipologiyasining amaliy samaradorligini aniqlash maqsadida Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institutida pedagogik tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tadqiqotda jami 30 nafar talaba ishtirok etdi. Ishtirokchilar ikki guruhga ajratildi: nazorat guruhi (NG) – XTA-25 guruhi (15 nafar talaba) hamda tajriba guruhi (TG) – DU-25 guruhi (15 nafar talaba).

Pedagogik tajriba "boshlang'ich test – pedagogik ta'sir – yakuniy test" modeli asosida tashkil etildi. Dastlabki bosqichda har ikkala guruh talabalarining leksik kompetensiyasi bir xil diagnostik test va so'rovnoma vositalari yordamida baholandi. Pedagogik ta'sir bosqichida nazorat guruhi an'anaviy metodika asosida tashkil etilgan mashqlar tizimi bilan ta'lim oldi. Tajriba guruhida esa shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasining differensial, reflektiv, tanlov asosidagi hamda muammoli vaziyatga yo'naltirilgan komponentlari asosida ishlab chiqilgan mualliflik mashqlar tizimi qo'llanildi.

Tajriba yakunida har ikkala guruhda bir xil diagnostik vositalar asosida yakuniy test va so'rovnoma o'tkazildi hamda olingan natijalar qiyosiy-statistik tahlil qilindi. Ushbu tahlil ishlab chiqilgan mashqlar tipologiyasining bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini rivojlantirishdagi samaradorligini baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik tajriba-sinov ishining boshlang'ich va yakuniy bosqichlarida olingan natijalar 2-jadval hamda 1-diagrammada keltirilgan.

2-jadval: NG va TG guruhlarining boshlang'ich va yakuniy bosqich natijalari

Guruh	Boshlang'ich bosqich	Yakuniy bosqich	O'sish (%)
NG (XTA-25, n=15)	64%	68%	+4 foiz punkt
TG (DU-25, n=15)	65%	83%	+18 foiz punkt

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tajribaning boshlang'ich bosqichida nazorat guruhi (NG) va tajriba guruhi (TG) talabalarining leksik kompetensiya darajasi deyarli bir xil bo'lgan (mos ravishda 64 % va 65 %). Mazkur holat ikki guruhning boshlang'ich tayyorgarlik darajasi o'zaro teng bo'lganligini hamda tajriba-sinov natijalarining ishonchlilikini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar mavjudligini ko'rsatadi. Pedagogik tajriba yakunida an'anaviy metodika asosida ta'lim olgan nazorat guruhining ko'rsatkichi 68 %ni tashkil etib, boshlang'ich natijaga nisbatan 4 foiz punktga oshdi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi komponentlari (differensial, reflektiv, tanlov asosidagi hamda muammoli vaziyatga yo'naltirilgan mashqlar) asosida tashkil etilgan mashqlar tizimi qo'llanilgan tajriba guruhida esa leksik kompetensiya darajasi 83 %ga yetib, 18 foiz punktga oshdi. Demak, tajriba guruhidagi o'sish nazorat guruhiga nisbatan 4,5 baravar yuqori natijani ko'rsatdi. Olingan natijalar shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi komponentlari asosida ishlab chiqilgan mashqlar tipologiyasining an'anaviy metodikaga nisbatan yuqori amaliy samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi. Boshlang'ich bosqichdagi ko'rsatkichlarning deyarli tengligi (64 % va 65 %) tajriba sharoitlarining ekvivalentligini ko'rsatsa, yakuniy bosqichdagi sezilarli tafovut (68 % va 83 %) qo'llanilgan metodikaning samarali ta'siri bilan izohlanadi.

Tajriba guruhida kuzatilgan yuqori natijalar, avvalo, differensial mashqlarning talabalarining individual tayyorgarlik darajasiga moslashtirilganligi, reflektiv mashqlarning bilimlarni ongli o'zlashtirish jarayonini rag'batlantirganligi, tanlov asosidagi mashqlarning ichki motivatsiyani kuchaytirganligi hamda muammoli vaziyatga yo'naltirilgan mashqlarning leksik birliklarni real kasbiy-pedagogik vaziyatlarda qo'llash imkonini yaratganligi bilan izohlanadi.



Mazkur natijalar I.S.P. Nationning leksik kompetensiyani bosqichma-bosqich va ongli rivojlantirish konsepsiyasi ^[1] hamda C. Rogers va I.S. Yakimanskayaning shaxsga yo'naltirilgan ta'limda ta'lim oluvchining individual ehtiyojlarini hisobga olish zarurligi haqidagi ilmiy qarashlari ^[2, 3] bilan hamohangdir. Nazorat guruhida kuzatilgan nisbatan past o'sish (+4 foiz punkt) esa an'anaviy, asosan reproduktiv xarakterga ega mashqlar tizimining leksik kompetensiyani ko'proq bilim komponenti doirasida rivojlantirishi, kommunikativ va reflektiv faoliyatni esa yetarli darajada rag'batlantirmasligi bilan izohlanishi mumkin.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalarini talqin etishda uning ayrim cheklovlarini ham e'tiborga olish lozim. Xususan, tajriba-sinov ishlari 30 nafar talaba (har bir guruhda 15 nafardan) ishtirokida amalga oshirilganligi sababli, kelgusidagi tadqiqotlarda tanlanma hajmini kengaytirish hamda natijalarning statistik ishonchligini Studentning t-testi, χ^2 (xi-kvadrat) mezonini va boshqa statistik usullar yordamida qo'shimcha tekshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi komponentlari asosida ishlab chiqilgan mashqlar tipologiyasi bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini individual xususiyatlarni hisobga olgan holda, ongli va kasbiy yo'naltirilgan tarzda rivojlantirish imkonini beradi. Tadqiqot doirasida mashqlar tizimi ko'p mezonli tipologiya asosida tasniflangan bo'lsa-da, amaliy tajriba-sinov jarayonida differensial, reflektiv, tanlov asosidagi hamda muammoli vaziyatga yo'naltirilgan mashqlarga ustuvor ahamiyat berildi. Chunki aynan ushbu mashq turlari o'rganuvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish, reflektiv faoliyatini faollashtirish hamda kasbiy yo'naltirilgan leksik kompetensiyasini shakllantirishda yuqori samaradorlikni namoyon etdi. Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institutida o'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari mazkur xulosani amaliy jihatdan tasdiqladi. Xususan, tajriba guruhida leksik kompetensiya ko'rsatkichi 65 %dan 83 %gacha, ya'ni 18 foiz punktga oshgan bo'lsa, nazorat guruhida ushbu ko'rsatkich 64 %dan 68 %gacha, ya'ni atigi 4 foiz punktga oshdi. Mazkur natijalar taklif etilgan mashqlar tipologiyasining an'anaviy metodikaga nisbatan sezilarli darajada samarali ekanligini hamda uni bo'lajak chet tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga joriy etish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi: Oliy ta'lim muassasalarining chet tili yo'nalishlari o'quv dasturlariga differensial, reflektiv, tanlov asosidagi hamda muammoli vaziyatga yo'naltirilgan mashqlar tizimini bosqichma-bosqich joriy etish. "Leksikologiya", "Chet tillarini o'qitish metodikasi" kabi fanlarning o'quv-uslubiy majmualarini ishlab chiqilgan mashqlar tipologiyasi asosida takomillashtirish. Tadqiqot natijalarining statistik ishonchligini oshirish maqsadida kelgusidagi izlanishlarda tanlanma hajmini kengaytirish hamda Studentning t-testi, χ^2 (xi-kvadrat) mezonini va boshqa zamonaviy statistik usullardan foydalanish. Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining pedagogik amaliyoti davomida reflektiv hamda muammoli vaziyatga yo'naltirilgan mashqlardan muntazam foydalanishni monitoring qilish va metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etish.

Umuman olganda, ishlab chiqilgan mashqlar tipologiyasi bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik model sifatida tavsiya etilishi mumkin. Uning amaliyotga tatbiq etilishi chet tili o'qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirish, shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini samarali qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nation, I. S. P. Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
2. Rogers, C. Freedom to Learn. Columbus, OH: Charles E. Merrill Publishing Company, 1969.
3. Якиманская, И. С. Личностно-ориентированное обучение в современной школе. Москва: Сентябрь, 1996.
4. Якиманская, И. С. Личностно-ориентированное обучение. Москва: Педагогика, 2000.
5. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning. 5th ed. Boston: Allyn & Bacon, 1999.
6. Richards, J. C. The Role of Vocabulary Teaching. TESOL Quarterly, 10(1), 77–89, 1976.
7. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
8. Bloom, B. S. (Ed.). Taxonomy of Educational Objectives: Handbook I. Cognitive Domain. New York: Longmans, Green and Co., 1956.
9. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (Eds.). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. New York: Longman, 2001.
10. Зимняя, И. А. Компетентный подход в образовании. Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.
11. Зимняя, И. А. Педагогическая психология. Москва: Логос, 2004.
12. Richards, J. C., & Farrell, T. S. C. Professional Development for Language Teachers: Strategies for Teacher Learning. Cambridge: Cambridge University Press, 2005.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.